BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS O‘TISH

Umarov Xusniddin
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,
Cho‘lliyeva Afzuna
Guliston davlat pedagogika instituti boshlang‘ich
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
afzunacholliyeva@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars o‘tish mobaynida zamonaviy texnologiyalar, axborot kommunikatsiyalari, zamonaviy metodlardan foydalangan holda kam vaqt, kam xarajat evaziga sifatli ta’lim-tarbiya berish, bilimli va talab darajasidagi kadrlarni tayyorlash to‘g‘risida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: texnalogiya, metod, kadr, sinf, dars, ona tili, kommunikatsiya, mashq, konsepsiya.

Abstract. This article describes the provision of quality education and training of educated and indemand personnel in a short time and at lov cost using modern technologies, information communications and modern methods during classes.

Keywords: technologies, method, personnel, class, lesson, native language, communikation, exercise.

Kirish. Bugungi kun, bugungi davr. XXI asr texnologiyalar asri hisoblanadi. Uni esa bu darajaga olib chiqilishining tub mohiyati ilm-fan, ta’lim -tarbiyaga borib taqaladi. Ta’lim bu o‘qituvchilar va o‘quvchi lar bilan bog‘liq faoliyat turi hisoblanadi. Bu faoliyatni amalga oshirishda esa turli usullardan foydalaniladi. Bugungi kunda barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar barchasi o‘z oldiga bir maqsad qo‘yishgan. Bu ta’limni rivojlantirish, zamonaviy kadrlarni tayyorlash maqsadi bo‘lib, ularni jahondagi raqobatini ta’minlashdir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ham "O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" gi farmoni ham mavjud. Bu farmon negizida shuni ko‘rishimiz lozimki, oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish to‘g‘risida bayon etilgan. Hozirgi davr yoshlarining ta’lim olishiga nafaqat pedagog o‘qituvchilar, balki ota-onalar ham mas’uldir. Chunki ta’lim berishning eng kichik poydevori avvalo oila, keyinchalik esa maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Biz bu yo‘nalishlarni rivojlantirmay turib ta’limni isloh qilolmaymiz.

Asosiy qism. Ota -bobolarimiz shunday degan: " ...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit". Yurtimizda ham ta’lim sohasida anchagina o‘zgartishlar ro‘y berdi. Masalan ta’limni rivojlantirishni jahon bosqichiga ko‘tarish maqsadida maktab va oliy ta’lim tizimimizga Finlandiya ta’lim tizimi kirib keldi. Bu tizim nafaqat maktablarda, balki oliy

ta’lim muassasalarida ham bir necha qulayliklarga sabab bo‘ldi. Bu tizimda ishlash bir muncha zamonaviy texnologiyalar bilan dars o‘tish, tanishish, ulardan foydalanishni kundalik hayotimizga aylantirilishiga sabab bo‘ldi. Maktab tizimida e.maktab, kundalik.com saytlari bo‘lsa, oliy ta’limda "Hemis" dasturi shular jumlasidan. Xususan bu ta’lim tizimi orqali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va o‘quvchilariga yengillik olib keldi. Endilikda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari jurnal, konspekt va boshqa me’yoriy hujjatlarni qo‘lda yozishmaydi. Bu esa vaqtni, mablag‘ni tejash va samarali ta’lim usulida dars o‘tishni ta’minlab beradi. O‘qituvchi bu narsalarga ajratgan vaqtini endilikda zamonaviy metod, texnika va texnologiyalar o‘rganish, yaratish va qo‘llashga sarflamoqda. Natijada esa o‘quvchilar savodini tez sur’atlarda chiqarish, ularni bilimini oshirishga zamin yaratilmoqda.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dars jarayonlarini bevosita metodlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirda ta’lim tizimida quyidagi metodlardan foydalanildi: "AQLIY HUJUM", " TARMOQLAR", "SINKVEYN", "BBB", "6×6×6", "ROLLI O‘YIN", "ZIGZAG" va FSMU kabilar. Ammo bu metodlar bugungi kunda biroz eskirgan va ta’lim tizimi uchun bu metodlar yangilik emas. Hozirda boshlang‘ich ta’lim tizimida ona tili darslari uchun zamonaviy metodlardan biri bu "TEZ O‘YLA" metodidir. Bu metodda o‘qituvchi 1 daqiqa vaqt beradi va o‘quvchilarning hayoliga, fikriga kelgan tasodifiy so‘zlarni aytishini so‘raydi. Masalan o‘qituvchi "tulki" so‘zi bilan boshlab bersa o‘quvchilar uni: tulki, ruchka, quyon, gul, o‘rmon, parta...kabi so‘zlar bilan davom ettirishlari mumkin. Bu yerda so‘zlarning mantiqiyligiga, bir-biriga aloqadorliliga ahamiyat berish shart emas, chunki qandatly so‘z aytilishidan qat'i nazar o‘quvchi fikrlayapti, o‘ylayapti. Demak, u dars jarayoniga befarq emas.

Hozirda dars jarayonida turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitafonlar) yordamida tashkil etishga oid metodlardan biri bu "VIDEOTOPISHMOQ" metodi. Bu metod mazmuni shundan iboratki, o‘quvchilarga mavzuga oid biron sarlavha tanlanadi. Masalan, 1-sinflar uchun "O‘rmon hayvonlari" sarlavhasi. Bu sarlavhaga oid o‘qituvchi videorolik qo‘yib beradi. Undan so‘ng o‘sha rolikdagi so‘zlardan va bitta sarlavha mazmuniga oid bo‘lmagan bitta so‘z ekranda paydo bo‘ladi. O‘quvchilar esa o‘sha so‘zni topishlari kerak bo‘ladi. Bu metod yangi mavzularni o‘rganishda ko‘rgazmalilikka asoslangan holda mustahkamlashga yordam beradi. Chunki o‘quvchilarda ko‘rgan va tasavvur qilgan narsalari o‘qiganidan ko‘ra ko‘proq xotirasida mustahkamlanadi. Qanday metod qo‘llashdan qat'i nazar o‘quvchini bilim olishini tez va samarali usullar yordamida mustahkamlab borish lozim.

Zamonaviy texnalogiya o‘zi nima? Texnalogiya (so‘zi yunoncha "techno"- hunar, usta va "logos" - fan, ta’lim) ilmiy amaliyot asosida ma’lum xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullaridir. Zamonaviy texnologiyalar esa o‘quvchilarni saviyali, bilimli qilib tarbiyalashning oson usuli desak bo‘ladi. Zamonaviy dasturlardan biri, ta’lim tizimimizga yangi kirib kelgan dastur bu PIRLS dasturi hisoblanadi. Bu dastur aynan boshlang‘ich ta’lim 4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning badiiy asarni, axborot matnlarini qay darajada tahlil qilishini baholovchi dastur sanaladi. Bu dastur jahon miqyosida barcha davlatlar negizida bo‘lib o‘tadi. O‘zbekiston ilk marotaba 2021-yilda ishtirok etgan. Kelgusida 2026-yildagi ishtiroki kutilmoqda. Bu xalqaro dasturga tayyorlov boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bunda o‘qituvchidan bilim, ko‘nikma, sinchkovlik, izlanuvchanlik, mantiqiylik talab etiladi. Bunday dasturlar nafaqat xalqaro reytingimizni aniqlashda, balki kelgusi avlodning yetuk kadr bo‘lib shakllanishida asqotadi.

Xulosa. Shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, hozirgi davr texnika va texnologiyalar davrida biz ham ta’lim jarayonida sifatli kadr yetishtirib chiqarish maqsadida zamonaviy usul, texnika va texnologiyalardan samarali foylanishimiz lozim. Qanchalik bilimli, maqsadli o‘quvchilar tarbiyalasak, kelajagimiz shunchalik ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoni tahririda-Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 18.03.2022-yil, 06/22/89/0227-son.

2. Abdullayeva.Q va boshqalar "Ona tili". Toshkent. O‘qituvchi 1999y.

3. R.A.Mavlonova, B.S.Abdullayeva, M.K.Shirinov, M.M.Rustamova Boshlang‘ich ta’lim metodologiyasi. O‘quv qo‘llanma.Toshkent 2017-y.